

**ADABIYOT DARSLARINI INNOVATSION YONDASHUV
ASOSIDA TASHKIL ETISH**

To‘rayeva Xonzoda Yusupovna

Toshkent iqtisodiyot universiteti 2-sonli akademik litseyi

Til adabiyot o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda ta’lim sohasi sifatiga va zamonaviyligiga ko’proq ahamiyat berilmoqda. Mazkur maqola adabiyot darslarini zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida samarali tashkil etish masalalariga bag’ishlangan. Unda adabiy asarlarni tahlil qilishning yangi usullari, interfaol o‘quv uslublari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari va o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga qaratilgan boshqa innovatsion yondashuvlar bat afsil o’rganiladi.

Kalit so’zlar: Adabiyot darslari, innovatsion pedagogika, interaktiv o‘qitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), adabiy asarlarni tahlil qilish, o‘quv jarayonini takomillashtirish, tanqidiy fikrlash, ijodiy yozish, loyiha usuli, o‘yin texnologiyalari.

Kirish

Adabiyot inson qalbi va ruhidagi nozik tovlanish va ohanglarni ilg’ashga, ularni so’z vositasida aks ettirishga intladi. Eng oliv daraja, yuksak pog’onalarga chiqa oladigan badiiy adabiyot namunalari insoniyatni to’lqinlanadigan, hayojonga soladigan o‘y-fikrlar, kechinmalar, orzu umidlarni ifodalaydi. Dunyoda insinlar bir-biriga o’xshamaganidek, ularning qalb kechirmalari ham takrorlanmasdir. O‘zbek adabiyoti tarixi inson ruhiy holatlarini mahorat bilan aks ettirgan durdonalarga boy. Ular hozirgi avlod ruhiyatida, qalbida ham hayojon uyg’ota oladi. Muhimi, ular faqat ma’rifiy bilimimizni oshiish bilan cheklanmay, badiiy didimiz takomiliga, ma’naviy kamolotiga xizmat qiladi.

Zamonaviy dunyoda adabiyot ta’limi o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodiy qobiliyatları va madaniy savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan bo’lishi kerak. An’anaviy adabiyot darslari ko’pincha passiv tinglash va yodlashga asoslangan bo’lib, o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undamaydi. Shuning uchun adabiyot darslarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘quv jarayonini yanada qiziqarli, samarali va o‘quvchilar uchun jozibador qilishga yordam beradi.

Asosiy qism

Adabiyot fanini o‘qitish boshqa fanlarni o‘qitishdan keskin farq qiladi. Shunga ko’ra, uni fan sifatida qaraydiganlar bir guruhni tashkil etsa, adabiyot o‘qitishni san’at turi

sifatida baholab, adabiyot o'qituvchisining ishini ham san'atkorona bir ish sifatida baholaydiganlar kam emas. Demak, ular adabiyot o'qitish metodikasini ham san'at bilan tenglashtiradi. Amaliyotchilik nuqtayi nazaridan qaraydiganlar esa adabiyot o'qitish metodikasini darslarning o'tilishiga bevosita yordam beradigan, har bir darsning samarali bo'lishiga amaliy ko'mak bera oladigan soha deb bilishadi.

Innovatsion yondashuvlar — bu ta'lif jarayonini yangilash va yaxshilash maqsadida yangi g'oyalar, texnologiyalar va metodlarni qo'llashdir. Adabiyot darslarida innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning faolligini oshirish, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va darsni qiziqarli qilishda yordam beradi.

Adabiyot darslarida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Interaktiv metodlar: Rolli o'yinlar, guruhli muhokamalar va debatlar orqali o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash.
- Multimedia vositalari: Video, audio va grafik materiallardan foydalanish orqali darsni yanada qiziqarli qilish.
- Onlayn platformalar: O'quvchilar uchun onlayn resurslar va platformalar orqali qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etish.

Adabiyot darslarida *interaktiv o'qitish uslublarini qo'llash* o'quvchilarни faol ishtirok etishga undaydi. Munozaralar, guruhdagи ishlar, "miyani bo'ron" usuli, rolli o'yinlar va boshqa interaktiv usullar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish adabiyot darslarini yanada qiziqarli va samarali qilish imkoniyatini beradi. Prezentatsiyalar, videolar, onlayn resurslar, interaktiv doskalar va boshqa texnologiyalar o'quv jarayonini diversifikatsiya qilishga va o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi. Virtual ekskursiyalar, onlayn kutubxonalar va adabiy asarlarning audio-versiyalaridan foydalanish ham samarali bo'lishi mumkin.

Raqamlı resurslar asosida adabiyot darslarini o'qitish usullari, texnologik imkoniyatlardan foydalanish adabiyotning o'qitish va o'rganish jarayonini yanada samarali va qulaylashtirishga yo'l ochadi. Interaktiv dars materialari raqamli platformalarda tuzilgan bo'lib, o'quvchilar uchun qiziqarli va o'rganishni yanada qulaylashtiradi. Bu materiallar bilimlarni grafiklarda, animatsiyalarda yoki videolar orqali vizual ko'rinishda ta'minlaydi.

Interaktiv dars materialari, adabiyotning turli xil ko'rinishlarini o'rganishga mo'ljallangan bo'lib, matnlar, audio va video fayllar, testlar va boshqa tajribalar bilan bog'liq bo'ladi. Bu materiallarga internet orqali kirib olish mumkin bo'ladi yoki kompyuterga yuklab olish orqali ham foydalanish mumkin.

Interaktiv dars materiallari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) digital kitoblar: o'quvchilar uchun elektron kitoblar hamda maktab kutubxonalarida mavjud adabiy esselarni elektron variantlari.
- 2) audio va video fayllar: o'quvchilar matnni tinglash va tarjima qilish imkonini beruvchi audio kitoblar yoki audiodarslardan foydalanishi mumkin. Shuningdek, video darslar esa murakkab mavzularni tushuntirishda keng qo'llaniladigan usul hisoblanadi.
- 3) testlar va savollar: interaktiv test savollari orqali o'quvchilarning adabiyot bilimlarini mustahkamlash imkoniyati yaratiladi. Bu testlarda bir nechta variantlar beriladi va o'quvchi javobini tanlashi talab qilinadi.
- 4) o'yin va qo'shiqlar: adabiyotga oid o'yinlar va qo'shiqlar o'quvchilar uchun qiziqarli va samarali usuldir. Bu usul orqali o'quvchilar adabiyotni ko'plab joylarda ishlab chiqish, o'z faoliyatini mustahkamlash va adabiy matnlarni yodlash imkoniyatiga ega bo'ladi.
- 5) interaktiv dars platformalari: internet asosida faoliyat yuritadigan platformalar, adabiyot dars materiallarini bir joyda toplash va o'quvchilar uchun qulaylik yaratish maqsadida ishlatiladi. Bu platformalar orqali o'quvchilar dars materiallariga kirib borilganligi, vazifalarni bajarilganligi va natijalarini baholangani haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Loyiha usuli o'quvchilarga o'zlarining qiziqishlariga mos keladigan mavzularda mustaqil ishslash imkoniyatini beradi. O'quvchilar adabiy asarlarni tahlil qilish, tadqiqotlar o'tkazish, taqdimotlar tayyorlash va o'zlarining natijalarini taqdim etish orqali o'rganish jarayonida faol ishtirok etadilar.

An'anaviy tahlil usullaridan tashqari, adabiyot darslarida zamonaviy tahlil usullaridan, masalan, psixoanalistik, feminist, postmodernist va boshqa yondashuvlardan foydalanish mumkin. Bu o'quvchilarga adabiy asarlarni turli burchaklardan ko'rib chiqishga va chuqurroq tushunishga yordam beradi.

O'yin texnologiyalari o'quv jarayonini yanada qiziqarli va esda qolarli qilish imkonini beradi. O'quv o'yinlari, kvestlar, intellektual musobaqalar va boshqa o'yin shakllari o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishini oshirishga va o'rganilgan ma'lumotlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Adabiyot darslarida ko'rgazmalilikning asosiy maqsadi o'quvchilarga adabiy asarni yaxshiroq tushunishga yordam berish, yozuvchining ijodini to'liq tasavvur etishga ko'maklashish va adabiy-nazariy tushunchalarni o'zlashtirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratishdir. Bu jarayon o'quvchilar nutqini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Agar darslar o'tmish adabiyoti yoki chet el hayoti bilan bog'liq asarlar haqida bo'lsa, ko'rgazmalilikning ahamiyati yanada ortadi. Chunki o'quvchilar bunday voqealar va hodisalar haqida aniq tasavvurlarga ega bo'lishadi. O'qituvchining izohi bu holatda yetarli bo'lmasligi mumkin, lekin ko'rgazmalilik buni to'ldiradi. O'qituvchi

ko'rgazmalilikni o'z nazarida ham ko'rishi muhimdir. Garchi ba'zan o'quvchilarda passivlik paydo bo'lsa-da, bu ko'rgazmalilikning ahamiyatini kamaytirmaydi. Asosiysi, ko'rgazmalilik orqali o'quvchilar faol muloqotga, suhbatga va fikrlashga erishishlari kerak. Ko'rgazmalilik adabiy jarayon yoki obrazning ma'lum jihatlarini ochishga yordam beradi.

Kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishdan bosh maqsad madaniyatli kishini tarbiyalashdir. Madaniyatli kishini tarbiyalashda san'at va adabiyotning ahamiyati kattadir. Bu ikki kuch kitoblarda mujassamlashgan. Ayniqsa badiiy adabiyot asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda bilamizki, kitob o'qishga bo'lgan talablar kamayib bormoqda. Bunga sabab XXI asr komyuter texnologiyalari asri bo'lgani uchun barcha yoshlarimiz internet va boshqa ijtimoiy tarmoqlar bilan ovvora bo`lib qolishmoqda. Yoshlarimizni mana shunday o'rgimchak to ridan qutqarishning birdan bir yo'li bu badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishdir.

Xulosa

Xulosa sifatida aytish mumkinki, adabiyot darslarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish o'quv jarayonini samarali qilish va o'quvchilarning adabiyotga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi. Interaktiv o'qitish uslublari, AKTdan foydalanish, loyiha usuli, adabiy asarlarni tahlil qilishning yangi usullari va o'yin texnologiyalari o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodiy qobiliyatlari va madaniy savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu innovatsion yondashuvlarni amalga oshirish o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va o'z ustida ishlashini talab qiladi. Ammo, natijada, bu o'quvchilarning adabiyotga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirib, uni yanada qiziqarli va foydali qiladi. Ma'lumki, adabiyot darsligida o'zbek adabiyotining shoh asarlari bo'lgan yirik epik va dramatik asarlardan parchalar berilgan. O'quvchi nafaqat parcha bilan tanishishi, balki asar haqida ham to'liq tasavvurga ega bo'lishi darsning asosiy maqsadi hisoblanadi. Ta'lim jarayoniga "interfaol usullar" nomi bilan kirib kelgan usullar o'qituvchi uchun ortiqcha kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari.2003-yil
2. Adabiyot. O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinf va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. Birinchi nashr. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tasdiqlagan II QISM. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent–2017

3. Петрова Н.П., Бондарева Г.А. Цифровизация и цифровые технологии в образовании // Мир науки, культуры, образования. 2019. № 5 (78). С. 353-355.
4. Qamarov M.S. Raqamli texnologiyalarini o'rta ta'lim tizimidagi rivojlanishi va yangi texnogiyalarni dars jarayonlari bilan integratsiyallashuvi. "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 May 2023 / Volume 4 Issue 5, 1173-b.
5. Dilshoda Temirova, Yuldasheva Sohibaxon BADIY ADABIYOTLAR TARG'IBOTI VA ULARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI // Oriental Art and Culture. 2021. №6.
6. Mohigul Movlonova ADABIYOT DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDOGOGIK USLUBLARDAN FOYDALANISH ("UFQ" TRILOGIYASI MISOLIDA) // Scientific progress. 2021. №5.
7. Dilnozaxon Elmurot Qizi Haydarova ADABIYOT DARSLARI ORQALI O'QUVCHILARDA MILLIY VA UMUMINSONIY KOMPETENSIYALARНИ RIVOJLANTIRISH // Academic research in educational sciences. 2024. №1.
8. Gavhar Bahromovna Axmedxanova, Nodira Djoxongirovna Xolikova ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI // Central Asian Academic Journal of Scientific Research. 2022. №1.